

**CHIZMACHILIK FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY GRAFIK
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

Nuriddinova Marjona Sirojiddin qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Akramova Gulnoza Asqar qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotasiya: *Ushbu maqolada o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish yoritilgan. Shu bilan birga interfaol metodlar yordamida ularning motivatsiyasini kuchaytirish, ularning kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish masalalari ko'rilgan.*

Kalit so'zlar: *Grafik, kompetentlik, kasbiy grafik kompetentlik, interfaol, motivatsiya, produktiv, kreativ.*

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ФОРМИРОВАНИЯ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ГРАФИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

Нуриддинова Маржона Сирожиддин кизи

*студентка Ташкентского государственного педагогического университета имени
Низами*

Акратова Гулноза Аскар кизи

студентка Шахрисабзская государственная педагогика института

Аннотация: *В данной статье описано развитие профессиональной графической компетентности педагогов. При этом рассматривались вопросы повышения их мотивации и развития профессиональной графической компетенции с помощью интерактивных методов.*

Ключевые слова: *Графика, компетентность, профессиональная графическая компетентность, интерактив, мотивация, продуктивность, креатив.*

**SOVERSHENSTVOVANIE METODIKI FORMATION OF PROFESSIONAL
GRAPHIC COMPETENCE OF THE FUTURE TEACHER OF TECHNOLOGICAL
EDUCATION**

Nuriddinova Marjona Sirojiddin

student of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Akramova Gulnoza Asqar qizi

Shahrisabz state pedagogy A student of the institute

Annotation: *This article describes the development of professional graphic competence of teachers. At the same time, issues of increasing their motivation and developing their professional graphic competence with the help of interactive methods were considered.*

Keywords: *Graphic, competence, professional graphic competence, interactive, motivation, productive, creative.*

Yurtimizda ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha ko'plab ishlar olib borilib, ta'limni yanada isloh qilish, uni qaytadan loyihalash, o'qitishning yangi usullarini yaratish va ulardan foydalangan holda amalda qo'llashga e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish maqsadida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilaridan kasbiy grafik bilimlarni egallash va ularni texnologik ta'lim jarayonida qo'llash talab qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish maqsadida Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlarga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"¹⁵³ muhim vazifa sifatida belgilangan. Bunda bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarida kasbiy grafik kompetentliklarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish va produktiv, kreativ darajalrni puxta egallashlari uchun barcha imkoniyatlarini ta'minlanishi ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika sohasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va grafik tayyorlgarligini shakllantirish va rivojlantirishga oid izlanishlar olib borilganligiga qaramay, lekin bo'lajak texnologiya o'qituvchisining kasbiy grafik kompetentligini interfaol metodlar yordamida rivojlantirish kabi muammolarga e'tibor qaratilmagan va tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan.

Xorijdagi bir qancha olimlar pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini, kompetentligini va kasbiy-pedagogik salohiyatlarini rivojlantirishga oid izlanishlar olib borgan. Ulardan Anjela Strof, Bnjamin Blum, Brayan Kol, Drapaeau Patti, Jalin Golberg, Merriembar Jeron.

Mustaqillik yillarda iqtisodiyotning, ijtimoiy hayotning real talablarida kelib chiqqan holda, yurtimizda oliy ta'lim tizimini takomillashtirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunga kelib, chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish, va uning pedagogik jarayonlar ayonga tatbiqi elektron ta'lim reurslaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida chizmachilik o'qituvchilarini kasbiy metodik jihatdan tayyorlashda quyidagi omillar yotadi: bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-metodik jihatdan tayyorlashni insonparvarlashtirish, ilm-fan texnologiyalarining tezkor rivojlanishi sharoitida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga yondashuv va bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarini tayyorlashdan iborat.

¹⁵³ ¹⁵³Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли [“Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”](#)ги Фармони.// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. –Т.: 2017. –Б.39.

Yuqorida aytilganlaridan shuni tushunamizki, hozirgi kunda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy axborot texnologiyalari va ularni ta'lim jarayonida foydalanish va bunda innovatsion uslublarni o'zlashtirib olib, amaliyotda tatbiq qilish zaruruligi kelib chiqadi.

Jamiyatimizni isloh qilishini ta'lim tizimining yetakchi elementi sifatida zamonaviy maktablarni yanada takomillashtirish zarur ekanligini keltirib chiqarmoqda. Zamonaviy amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar davri o'sib kelayotgan shaxs uchun katta ahamiyatga ega. U ta'lim siyosati, qonunchilik tizimi, jo'shqin tashabbuskorlik va g'oyaviy innovatsion harakatlar, itimoiy-pedagogik bilish, pedagogik tadqiqotlar va ishlannalarda namoyon bo'ladi.

Maktabda "Chizmachilik" fani o'quvchilarning atrof-dagi borliqni o'zgartirish vositalari va usullarini egallash imkoniyatlari, ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni, o'rganilgan asosiy bilimlarni amaliy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishini ta'minlaydi.

Ta'limning asosiy maqsadi texnologik madaniyatni shakllantirish bo'lib, u moddiy va ma'naviy qadriyatlarini yaratish bo'yicha yaratuvchanlik faoliyati metodlari va vositalari tizimini egallashni ko'zda tutadi. U zamonaviy va istiqbolli energiya tejoychi, moddiy tejamkor va chiqimsiz texnologiyalarni, atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurashish metodlari, mehnat qilish madaniyatini o'zlashtirish, mehnat qilish jarayonini rejalashtirish va tashkil qilish, texnologik intizom, ish joyini asbob-uskunalar bilan to'g'ri ta'minlash, mehnat muhofazasi, hujjatlarni kompyuterda qayta ishlash, muomala madaniyati, ijodiy faoliyai asoslari, loyihalarni bajarish, loyihaviy faoliyat imkoniyatlari va talabalarini aniqlash, axborotlarni yig'ish va tahlil qilish, loyiha g'oyasini ilgari surish, ushbu g'oyani ilgari surish, ushbu g'oyani tadqiq qilish, rejalashtirish, tashkillashtirish, ishlarni bajarish va uni baholash o'rganishni ko'zda tutadi.

Bo'lajak chizmachilik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishdan maqsad ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini nazariy, metodik ba texnologik baholashdir. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va uni amaliyotda qo'llashda alohida e'tibor qaratilari talab qilinadi. Endi esa muhandislik grafikasini o'qitishga keladigan bo'lsak unda ham bir qanvha metodlarga alohida yondashish lozim. Bulardan o'quv fanini o'qitishdan maqsad, o'quv materialini o'rganishga ajratilgan vaqt hajmi, talabalrning dars mashg'ulotiga qay darajada tayyorligi, psixologik va fiziologik ko'rsatkichi, ko'rgazmali qurollar bilan tashkil etilganligi hamda kompyuter va boshqa vositalar bilan ta'minlanganligiga ahamiyatga ega.

Pedagogik tadqiqotlarda shaxs rivojlanishi bilan bog'liq g'oyalarni rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi sifatida ifodalangan, ular V.A.Slastenin, I.F.Isayev, E.N.Shiyanov va boshqalarning tadqiqot ishlarida asoslab berilgan. Rivojlantiruvchi ta'limning asosiy maqsadi bolani o'z-o'zini o'zgartirishga intiluvchan va bunga qodir subyektga aylanish uchun sharoit yaratib berish hisoblanadi. Pedagogik olim Selevko G. shaxsga yo'naltirilgan ta'limning konsepsiyalarida shaxs ta'lim berish omilini va ta'limning maqsadi hisoblanadi. Ko'plab tadqiqotlarda shaxsning xususiyatlariga ko'ra tabiiy rivojlanish uchun emas, balki uning ijtimoiy sifatlarini

rivojlantirish uchun emas, balki uning ijtimoiy sifalarini rivojlantirish, unga sharoit yaratib berish haqida soʻz yuritgan.

Axborot va kominunikatsion tevnologiyalar hamda kompyuter texnikasidan foydalanish juda rivojlanib bormoqda. Respublikamiz taʼlim sohasida ulardan foydalanish, oʻqitish sifatini oshirishga, oʻquvchilarning fikrlash doirasini oshirish va kengaytirishga, oʻquvchilarda mustaqil oʻzlashtirish faoliyatini kuchaytirish hozirgi zamonning dolzarb muammosiga aylanib bormoqda.

Kundan-kunga masofaviy tarmoq kurslari va tanlovlari ommalashib bormoqda. Oʻqituvchi endi bilim axborotlarini yetkazuvchi yagona markaz emas, kompyuter texnologiyalarni qoʻllash bilan masofaviy taʼlim berish va olish imkoniyatiga ega boʻlmoqda.

Masofaviy oʻqitish – oʻquvchilarga asosiy oʻrganiladigan materiallar xajmini etkazib berishni, oʻquvchi va oʻqituvchilarning oʻquv jarayonida interfaol hamkorligini, oʻquvchilarga oʻrganiladigan materiallarni oʻzlashtirish boʻyicha hamda oʻquv jarayonida mustaqil ishlash imkoniyatlariga sharoit yaratib berishni taʼminlaydigan texnologiyalarning jamlamasidir.

Pedagogik tajriba va sinov jarayonida oʻqitishning interfaol metodlarida foydalanish ham maqsadga muvofiq. Ulardan “Mentalitet” yoki “Studes” kabi interfaol metodlarni qoʻllash samara beradi.

Mentalitet metodi zehnlilik degan maʼnoni bildiradi. Mahorat darslarini olib borayotgan har bir pedagog chizmaning ayni bir vaqtda hosil qilinishini taʼminlash orqali talabalarda grafik va konstruktorlik vazifalarini bajarishda koʻnikma hosil qiladi.

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi kunda boʻlajak texnologik taʼlim oʻqituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishda interfaol metodlarning yaratilmaganligi va zamonaviy oʻqitish vositalaridan foydalanmayotganligini koʻramiz. Va buni amalda tatbiq qilish uchun texnologik taʼlim mazmunini kasbiy grafik kompetentlik tushunchalar mohiyatini zamonaviy nuqtai nazardan aniqlashtirish talab qilinadi. Texnologik taʼlim jarayonida interfaol taʼlim texnologiyalari va metodlarni qoʻllashda texnologik bilimlarni olishi, yigʻishi, saqlashi, va shu asosada metodik jarayonni rejalashtirish, amalga oshirish, boshqarish, tahlil qilish lozim.

Taʼlim jarayoni sifatli amalga oshirishda oʻquv mashgʻulotlarini tashkiliy metodik taʼminlash, talabalarning kasbiy grafik kompetentligini shakllantirishda modulli-kompetensiyaviy yondashuv asosida taʼlimning interfaol metodlaridan foydalanish zarurdir.

ADABIYOTLAR:

1. Muslimov Sh.N. “Chizma geometriya va Muhandislik grafikasi” elektron oʻquv qoʻllanma 2020. Respublika intellektual mulk agentligi guvohnomasi. №DGU 07744
2. Muslimov Sh.N., Xolmurzaev A.A., Madaminov J.Z., Xomidov A.Q. “Chizma geometriya va Muhandislik grafikasi” fanidan talabalar bilimini baholash uchun EHM dasturi 2020. Respublika intellektual mulk agentligi guvohnomasi. №DGU 08206
3. Muslimov Sh.N, Turaxanov.Sh.U, Matlab.I.A. “Chizmachilik” elektron qoʻllanma (mobil ilova) 2020. Respublika intellektual mulk agentligi guvohnomasi. №DGU 08816

4. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 48 б.

5. Ўзбекистон Республикасининг “Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида”ги (2019 йил 29 октябрь) Қонуни // <https://lex.uz/doc/4571490>.

6. Muslimov Sh.N. “Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” T-2020:, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.

7. Байденко В.И. Компетенции в профессиональном образовании (к освоению компетентностного подхода) // Ж. Высшее образование в России. – М.: 2004. - № 11. - С. 3-14.

8. Химматалиев Д.О. Касбий фаолиятга тайёрганлик диагностика қилишда педагогик ва техник билимлар интеграцияси / Моног. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – 168 б.

9. Шарипов Ш.С. Талабалар ихтирочилигини шакллантиришнинг педагогик шароитлари: Дисс. ... пед.фан.номз. – Т.: 2001. – 140 б